

**THE IMPORTANCE OF THE DEVELOPMENTAL ENVIRONMENT IN THE
ACTIVITY OF CENTERS IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS**

Yuldasheva Dilafruz Makhammadaliyeva,

FarDU Ph.D. (DSc) Associate Professor

Ergasheva Solihabonu Baqijan kizi,

graduate student of FarDU

Abstract: In this article, the importance, relevance and tasks of the developmental environment in the process of activities in the center in raising healthy, mature in all respects, and physical strength of the students are highlighted.

Key words: activity, interactive methods, activity in centers, developmental environment, aspiration, morning physical education, mental activity, physical development.

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI MARKAZLAR FAOLIYATIDA
RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNING AHAMIYATI**

Yuldasheva Dilafruz Maxammadaliyeva,

FarDU f.f.d. (DSc) dotsenti

Ergasheva Solihabonu Boqijon qizi,

FarDU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiyalanuvchilarni sog'lom, har tomonlama yetuk, jismonan baquvvat qilib tarbiyalashda markazlardagi faoliyatlar jarayonidagi rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati, dolzarbligi va vazifalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: faoliyat, interfaol usullar, markazlardagi faoliyat, rivojlantiruvchi muhit, intiluvchanlik, ertalabki badantarbiya, aqliy faoliyat, jismoniy rivojlanish.

Yillar davomida to'plangan malumotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotning deyarli yetmish foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olib ulgurishi aniqlangan. Darhaqiqat, bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, ota-ona, oila, mahalla, Vatanga mehri uyg'onadi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, umri davomida oladigan bilimlariga zamin hozirlaydi.

Mamlakatimiz hayotida olib borilayotgan keng siyosiy va ijtimoiy islohatlar doirasida maktabgacha ta'limda ta'lim va tarbiya faoliyatini olib borishda sifatni oshirish, ta'lim - tarbiya jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot kommunikativ texnologiyalar hamda zarur shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan dasturlarda maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini sifatida, bu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bolalar huquqiy savodxonligini shakllantirishdagi o'rni hamda, Respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi ekanligi

ta'kidlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida 2017 yil 16-avgust kuni bo'lib o'tgan yig'ilishda maktabgacha ta'lim tizimini tarkibiy jihatdan tubdan isloh qilish, mazkur tashkilotlarga bolalarni to'la qamrab olish bo'yicha muhim vazifalar qo'yilgan edi. Bu boradagi tahlillar natijasida qisqa vaqtda uchta yirik hujjat — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 9-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3261-sonli Qarori, 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5198-sonli Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi – faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3305-sonli Qarori imzolangan edi. Lekin oradan vaqt o'tib Prezident tomonidan 02.07.2024 yildagi "Maktabgacha va maktab ta'limi sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-98-son Farmon imzolandi. Maktabgacha va maktab ta'limi tizimida yaxlit davlat boshqaruvi tizimini tashkil qilish, ushbu sohadagi dolzarb muammolarni samarali hal etish maqsadida Maktabgacha ta'lim agentligi tugatildi. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohatlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-269-sonli qarori asosida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi negizida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tashkil etildi. Mazkur sohani takomillashtirish maqsadida qabul qilingan dasturda maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini sifatida, bu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bolalar huquqiy savodxonligini shakllantirishdagi o'rni hamda, Respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi ekanligi ta'kidlangan. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarorini ijro etish maqsadida ishlab chiqilgan bo'lib, 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu kabi vazifalarni bajarish maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni yaratish muhim sanaladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit bolaning jismoniy, aqliy, axloqiy, estetik, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishi, o'z-o'zini rivojlantirish, uning turli hil mustaqil ijodiy faoliyatlari uchun zarur bo'lgan obyektlarni o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitning asosiy ahamiyati –uning rivojlantiruvchi xususiyatga ega ekanligidir. Rivojlantiruvchi muhit bolalar uchun maqsadga qaratilgan bo'lishi shuningdek, bolalarning turli xil faoliyatlar bilan shug'ullanishlariga imkoniyat yaratib berish maqsadida tashkil etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitning turli-tuman interfaol usullarda bo'lishi bolalarning kun davomida o'z ixtiyoriga ko'ra foydali ish bilan shug'ullanishlariga imkon beradi. Bu esa maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining eng katta yutug'i hisoblanadi. Bu kabi rivojlantiruvchi muhitning usullarini bolalarning yosh xususiyatlaridan, shart-sharoitlatdan kelib chiqqan xolda ko'plab o'ylab topish hamda boyitib borishimiz mumkin. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabgacha ta'lim

yoshidagi bolalarni rivojlantirish va maktab ta'limiga tayyorlash jarayonida pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish zamon talabiga aylanib ulgurgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotida esa yangi pedagogik ta'lim markazlardagi faoliyat hamda pedagogik o'yinlar asosida amalga oshiriladi. Rivojlantiruvchi muhitning interfaol qismlari jismoniy sog'lomlashtiruvchi majmua bolalar bog'chasi majmuasi ekologik majmua bolalar oshxonasi ertalabki badantarbiya mashqlarini olaylik. Ertalabki badantarbiya mashqlarini bajarish bolani sog'lom bo'lishi, qomatini to'g'ri rivojlanishi, qon aylanishi, nafas olishiga yordam beradi. Bolalarda diqqatini, maqsadga intiluvchanlikni tarbiyalaydi, aqliy faoliyatining oshishiga yordam beradi, emotsiya va quvonch tuyg'ularini uyg'otadi. Ertalabki badantarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish, o'rganish uslubulari o'rgatishning harakat malakalari va maxsus bilimlarni egallashga qaratilgan. O'rganish jarayoni bolalarning jismoniy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Mashg'ulotlarni tashkil etishda jismoniy tarbiya yo'riqchisi bolalar bilan birgalikda ijodiy faoliyatda bo'lishi hamda yangi interfaol usullardan foydalanishi muhim sanaladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya yo'riqchisi bolalar bilan bir qancha interfaol usullardan foydalanishi mumkin. Bu bolalarda badantarbiya mashg'ulotlariga majburiyat yuzasidan emas, balki qiziqish va umumiy rivojlanish uchun bajarish ko'nikmasini shakllantiradi. Xulosa qilib aytganimizda, bolalarni sog'lom, har tomonlama yetuk, jismonan baquvvat qilib tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni yaratish, faoliyatlarni bola yoshiga mosligi, guruh honasining shinamligi va yorug'ligi, eng asosiysi bola qiziqishidan kelib chiqqan xolda yaratish muhimdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va Maktabdagacha ta'lim Vazirligining maktabdagacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risidagi qarorlariga muvofiq maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarida 5 ta markaz tashkil etilgan: "Til va Nutq", "Qurish, yasash va matematika", "San'at", "Fan va tabiat", "Syujetli va rolli" markazlar. Ushbu markazlar tarbiyalanuvchilar uchun muhim o'rin kasb etadi, chunki bola markazlarda erkin faoliyat olib boradi. Tarbiyachi esa ularga yordamchi sanaladi. Bu esa bolalarni nutqini, erkin fikrlashini, jismoniy va ijtimoiy bilish kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bolalar ongini rivojlantirishda asosiy faoliyat turi o'yin hisoblanadi. O'yin orqali bola o'rgatilgan mashg'ulotni xotirada tez va mustahkam saqlaydi.

Markazlarda ham bolalar bilan o'yin orqali ishlash muhim o'rin egallaydi. Buning uchun biz pedagoglar markazlarni bolajonlarga jihozlab, barcha shart-sharoitlarni yaratib berishimiz lozim. Masalan, "Til va Nutq" markazi: bunda biror bir qutichaga mashg'ulotga mos rasmlar kartochkalar solinib, bolalar ikki guruhga bo'linadi. Har bir guruhdan bittadan ishtirokchi chiqib, birin-ketin quti ichidan kartochni tanlab olib, rasmlar mos hikoya tuzadi yoki she'r aytadi. "Qurish-yasash va matematika" markazi: bunda bolajonlar markazdagi geometrik shakllardan, lego va konstrukturalardan foydalanadilar, shu bilan birga guruhda o'rta doira chizib, bolalar ham chizilgan doira bo'ylab turishadi. So'ngra biron bir raqam tanlanadi, masalan: 10 raqami. Bolalardan 10 tasi doiraga kiradi va 10-2 deyiladi, shunda bolalardan ikkitasi doiradan chiqishadi. Qolgan bolalar sanaladi. Misolni javobi yechiladi o'yin shu tariqa davom etadi. Bunda bolalar raqamlarni farqlashga, sanashga, hisob-kitobga o'rganadi. "San'at" markazi: Ushbu markaz bolajonlar uchun juda ham sevimli markaz sanaladi. Sababi bolajonlar unda rasmlar chizib, raskraskalar bo'yashadi, aplikatsiya ishlarini, plastelindan o'zlari xohlagan narsalarni yasab, erkin faoliyat olib borishadi. Masalan "Non" haqidagi mashg'ulotimiz uchun markazda non rasmini

chizish. Bunda tarbiyachi faqatgina bolalarga: "Bolajonlar, barchamiz "San'at" markazida non rasmini chizamiz, qani kim qanday nonni o'z rasmida aks ettiradi?", - deydi. Bolalar esa: kimdir chiroyli nonni, kimdir sedanali nonni, yana kimdir esa uyidagi onasi yopgan - ozgina gullab qolgan nonni chizishga harakat qiladi. Bu bilan bola erkin fikrlaydi va tasavvuri kengayadi. "Fan va tabiat" markazi: bu markazni xonadagi markazda yoki tabiat bag'rida o'tkazsa ham bo'laveradi. Yana bu markazda tarbiyachi tajribalar o'tkazishi ham mumkin. Masalan: "Kamalakni qog'ozda aks ettiramiz". Buning uchun bir martalik qog'oz va rangli qalamlar kerak bo'ladi. Qog'ozning ikki chetiga rangli qalamlar bilan 2sm uzunlikda bo'yab olamiz va ikki chekkasini suvga solamiz, shunda ranglar birlashib tepaga bo'yaladi va kamalak hosil bo'ladi. Bolalar bunday tajribalardan juda ham shodlanadilar va o'zlari bajarib, ajoyib tabiat manzarasidan quv naydilar. "Syujetli va rolli" markaz: bolajonlarning eng sevimli markazlaridan biri hisoblanadi, chunki bolajonlar bunda ertaklar tinglab, ertakdagi qahramonlarga taqlid qilib, uning rolini bajaradilar. Kimdir Kenja botir, kimdir Zumrad rolini, yana kimdir quvnoq quyoncha rolini bajarishni istaydilar. Xulosa qilib aytganda, bolalar ongini rivojlantirishda asosiy faoliyat turi o'yin hisoblanadi. O'yin orqali bola o'rgatilgan mashg'ulotni xotirada tez va mustahkam saqlaydi. Shuningdek, bu mashg'ulotlar orqali bolajonlarimizning har bir kuni, har bir soati qiziqarli va maroqli o'tadi. Zero, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning qobiliyatlarini rivojlantirib, har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalash, biz tarbiyachilarning ustuvor vazifalarimiz sanaladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyasini takomillashtirish muammo va yechimlari. Res. ilmiy amaliy tezislari to'plami. T. "Iqtisod moliya", 2009. 212 bet [1/200], [2/201]
2. «Maktabgacha ta'lim» jurnali: www.jlmt.uz
4. Muxabbat Normatovna Mirazimova MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI // Academic research in educational sciences. 2021. №10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-bolalarda-gimnastikamashg-ulotlarini-tashkil-etish-usullari> (data обращения: 01.12.2021).
5. Yuldasheva, D., Ermatova, M., & Abdumalikova, N. (2024). Jahon tilshunosligida matn tadqiqi haqida. Farg'ona Davlat Universiteti, 30(1), 75. Retrieved from
6. YD Maxamadalievna. USE OF PRESIDENTIAL NAMES IN UZBEK CHILDREN'S TEXTS. Gospodarka i Innowacje. 22, 68-70
7. D Yuldasheva, S Umarova . MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA O 'YINLAR TEXNOLOGIYASI. Scientific progress 3 (2), 746-751
8. ДМ Юлдашева. Синтактик такропларнинг бадиий-эстетик имкониятлари. Международный журнал/ Искусство слова

List of used literature

1. Problems and solutions of improving the education of preschool children. Res. collection of scientific practical theses. T. "Economics and Finance", 2009. 212 pages [1/200], [2/201]
2. "Preschool education" magazine: www.jlmt.uz
3. 4. Mukhabat Normatovna Mirazimova METHODS OF ORGANIZING GYMNASTICS CLASSES IN PRE-SCHOOL CHILDREN // Academic research in educational sciences. 2021. #10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/organization-methods-of-gymnastic-training-for-school-age-children> (data obrascheniya: 01.12.2021).
5. Yuldasheva, D., Ermatova, M., & Abdumalikova, N. (2024). On Textual Research in World Linguistics. Fergana State University, 30(1), 75. Retrieved from
6. YD Makhamadalievna. USE OF PRESIDENTIAL NAMES IN UZBEK CHILDREN'S TEXTS. Gospodarka i Innovacije. 22, 68-70
7. D Yuldasheva, S Umarova. TECHNOLOGY OF GAMES IN THE SYSTEM OF PRESCHOOL EDUCATION. Scientific progress 3 (2), 746-751
8. DM Yuldasheva. Artistic and aesthetic possibilities of syntactic repetitions. Mejdunarodnyy zurnal/ Iskustvo slova